

Temur Po'latov (1939)



Temur Po'latov (1939)



Yozuvchi Temur Po'latov 1939 yilda Buxoroda tug'ilgan. Buxoro Davlat pedagogika institutini, Moskvadagi kinostsenaristlar oliy kursini bitirgan. Uning dastlabki qissasi («Ne xodi po obochine») 1964 yilda «Zvezda Vostoka» jurnalida chop etiladi. Shundan so'ng u yaratgan qissa va romanlar Toshkentda, Moskvada rus va o'zbek tillarida nashr etila boradi.

Adibning «Bo'lak manzilgohlar», «Bolalar xori», «Dushan qaysarning ko'rgan-kechirganlari» 70—80-yillar adabiyotida sarguzasht janri taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shildi. Shuningdek uning «Buxoro xonadonining kechmishlari», «Mulk», «Kunda-shunda», «G'oyibning ikkinchi safari», «Etti huzur-halovat va qirq qayg'u alam», «G'oyibning qaytishi», «Taroziy toshbaqasi» kabi o'nlab yirik epik polotnolari kitobxon tomonidan iliq qarshi olingan.

Temur Po'latov 1986 yilda o'zining «Mulk», «G'oyibning ikkinchi safari», «Kunda-shunda» qissalari va «Buxoro xonadonining kechmishlari» romani uchun Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. 1989 yilda esa unga O'zbekiston xalq yozuvchisi faxriy unvoni berilgan.

2023-09-14 21:03:20